


120. Harakatga doir masalalar yechish

Yondosh mavzu:
transport turlari.

Sxema, masofa,
vaqt, tezlik.



1. Har bir qatordagi qonuniyatni aniqlang. Bu qatorlardagi yana navbatdagi ikkita sonni ayting.



2. Yo'l formulasidan foydalanib, noma'lum kattalikni toping.

v	t	s
15 km/h	4 h	?
?	10 s	30 m
12 m/min	?	240 m

v	t	s
50 m/s	40 s	?
?	14 min	280 m
22 m/min	?	4400 m

Harakatga doir masalalarda shartni jadval yordamida yozish qulay. Bu, ayniqsa, masala ikki obyektning harakatini yoki harakatning ikki bosqichini tasvirlaydigan holatlarda qulaydir.



v	t	s

120. Harakatga doir masalalar yechish



3. Qishloqdan temiryo'l bekatigacha bo'lgan masofa 1 km 500 m. Sayyoh 75 m/min tezlikda yurmoqda. Agar poyezd 30 minutdan keyin bekatdan jo'nab ketadigan bo'lsa, sayyoh poyezdga ulguradimi?

v	t	s
75 m/min	?, $t < 30 \text{ min} - ?$	1 km 500 m



4. Avtomobil yo'lining birinchi qismida 55 km/h tezlikda 4 soat yurdi. Yo'lining ikkinchi qismida esa u 65 km/h tezlikda yana 3 soat yurdi. Avtomobil jami qanday masofani bosib o'tgan?

	v	t	s
Yo'ning I qismi	55 km/h	4 h	?
Yo'ning II qismi	65 km/h	3 h	?



5. Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan masofa 286 km ni tashkil etadi. Ikki velosipedchi Toshkentdan Samarqandga jo'nab ketdi. Birinchi velosipedchining tezligi 11 km/h, ikkinchisining tezligi esa 13 km/h. Qaysi velosipedchi Samarqandga keyin va necha soat keyin keladi?

	v	t	s
I velosipedchi	11 km/h	? km/h	286 km
II velosipedchi	13 km/h	? katta	286 km



6. Sxemalar bo'yicha tenglamalar yozing va ularni yeching.

a)
$$n + 667\,234 = 938\,302$$

b)
$$117\,348 - 92\,462 = x$$

d)
$$33\,508 + m = 90\,472$$

e)
$$118\,221 - t = 657\,003$$



7. Tenglamalarni yeching. Tenglamalarning ildizlari ularga mos keladigan transport turlarining km/h lardagi tezligi bo'lishi mumkinmi? Qaysi holatda xatoga yo'l qo'yilgan?



$$t \cdot 22 = 484$$



$$1800 : x = 30$$



$$z \cdot 21 = 1050$$



$$m \cdot 4 = 3200$$



$$80 : n = 5$$



$$y : 7 = 70$$



8. Yo'lovchi yo'lning yarmini bosib o'tgandan keyin uxlashga yotdi. U uxlab yotgan vaqtida bosib o'tgan masofasining yarmi qolguncha uxlaydi. Yo'lovchi yo'lning qanday qismini uxlab o'tkazgan?



9. Hisoblang. Tog'lardagi ilonizi yo'llar qanday ataladi?

A $45603 + 39648$

P $17299 + 54224$

E $80000 - 45225$


R $94507 - 56578$

I $571 \cdot 22$

S $445 \cdot 105$

N $36092 : 14$

T $16734 : 6$



46725	34775	37929	71523	85251	2578	2789	12562	2578
-------	-------	-------	-------	-------	------	------	-------	------



10. Daftaringizga quyidagi masala bo'yicha jadval chizing va uni to'ldiring.

Sayyoh 12 km uzunlikdagi masofani bosib o'tishi kerak. Dastlab u 3 soat davomida 2 km/h tezlik bilan tog'ga ko'tarildi. Keyin u 3 km/h tezlik bilan tog'dan pastga tushdi. Sayyohning tog'dan tushishi uchun qancha vaqt kerak bo'lgan?